



Received: June 4, 2025
Accepted: August 23, 2025
Available online: August 25, 2025

Gulchexra Raximova

Tayanch doktorant
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

BADIIY AFORIZMLARNING KOGNITIV-STILISTIK VA SEMANTIK JIHATLARI TADQIQI

ANNOTATSIYA

Aforizmlar qadim qadimdan insonlarning ongiga, turmush tarziga va madaniyatiga singib ketgan va xalq og'zaki ijodida uchraydigan maqol va matallar singari muhim ahamiyat kasb etadi. Aforizmlar insonlarning ichki kechinmalari, o'y hayollari va dunyoni anglash, tushunish kabi tushunchalarni ochib beruvchi vosita sifatida qaraladi va bu adabiyotda keng foydalaniladi. Badiiy aforizmlar shu o'rinda, muallifning hayot, sevgi, o'lim do'stlik kabi ma'lum bir tushunchalarni va tasavvurlarini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur tadqiqotda aforizmlarning lingvopoetik va kognitiv xususiyatlari har tomonlama tadqiq qilinadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi aforizmlarning badiiy-estetik mohiyatini ochish, ularning semantik, uslubiy va kognitiv imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotni olib borishda 60 dan ortiq O. Uayld, V. Vulf, U. Bleyk, S. Jonson, J.B. Shou kabi yozuvchilarning aforizmlari tanlab olindi va tadqiq qilindi. Tadqiq davomida aforizmlarning obrazlilik, emotsionallik va baholash kategoriyalarini o'zida mujassam etganligi va bu kategoriyalar aforizmlarning uslubiy mezonlari ekanligi; aforizmlarda obrazlilik, emotsionallik va baholash kategoriyalari turli stilistik vositalar, ya'ni, metafora, antiteza, paradoks, alluziya, oksimoron, epiteta orqali ochib berilishi; va inson tafakkurining metaforik tabiatini namoyon etishda aforizmlarning ahamiyatga ega ekanligi yoritib berildi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida stilistik, kognitiv-uslubiy hamda pragmatik tahlil

Gulchekhra Rakhimova

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: grakhimova91@gmail.com
ORCID iD: 0009-0003-2955-1121

A STUDY OF THE COGNITIVE- STYLISTIC AND SEMANTIC DIMENSIONS OF LITERARY APHORISMS

ABSTRACT

Aphorisms have been deeply rooted in human consciousness, lifestyle, and culture since ancient times and, like proverbs and sayings, hold significant importance. They are viewed as a means of revealing human inner experiences, thoughts, and perceptions of the world, helping to comprehend reality, and are widely used in literature. Literary aphorisms play an important role in uncovering the author's concepts and ideas about such notions as life, love, death, friendship, and others. This research comprehensively investigates the linguopoetic and cognitive features of aphorisms.

The main aim of the study is to reveal the artistic and aesthetic essence of aphorisms and to analyze their semantic, stylistic, and cognitive potential. For this research, more than 60 aphorisms by authors such as O. Wilde, V. Woolf, W. Blake, S. Johnson, and G. B. Shaw were selected and analyzed. The analysis demonstrates that aphorisms encompass the categories of imagery, emotiveness, and evaluation, which serve as stylistic criteria; these categories are expressed through various stylistic devices such as metaphor, antithesis, paradox, allusion, oxymoron, and epithet; and that aphorisms play a crucial role in revealing the metaphorical nature of human thinking.

The study employed linguopoetic analysis, cognitive semantics, conceptual metaphor theory, and conceptual blending model as its methodology. The results showed that aphorisms, in a concise form, carry deep semantic and emotional meaning, reflecting the author's

metodlaridan unumli foydalanildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra aforizmlar qisqa shaklda chuqur semantik va emotsional ma'no yuklashini, ular orqali muallifning baholash pozitsiyasi, falsafiy qarashlari va ijtimoiy-estetik qarashlari namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

O'tkazilgan tahlil asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, aforizmlar nafaqat badiiy matnning ekspressiv qatlamini boyitishi, balki o'quvchida tafakkur uyg'otuvchi, bahs-munozaraga undovchi kuchga ega. Tadqiqot natijalari aforizmlarni lingvopoetik va kognitiv aspektda yanada chuqur o'rganish, shuningdek, ularni tarjima, stilistika va nutq madaniyati darslarida samarali qo'llash imkoniyatini ochadi.

Kalit so'zlar: badiiy aforizm, uslubiy tahlil, obrazlilik, emotsionallik, baholash, konseptual metafora, blending, intertekstuallik, konvergensiya, dialogizm.

KIRISH

Aforizm – bu “hayot va uning ayrim jihatlari – sevgi, do'stlik, tabiat, o'lim va hokazo haqida umumiy haqiqat yoki tamoyilni o'z ichiga olgan ixcham va lo'nda bayon etilgan kuzatishlar mahsulidir” [Gross, 2003]. Bu atama yunon tilidagi (ἀφορισμός;) “aphorismos” so'zidan olingan bo'lib, “ta'rif” yoki “qisqa jumla” degan ma'noni anglatadi. Dastlab aforizmlar Gippokrat tomonidan kasalliklar haqida qisqa tibbiy ta'limotlar va donolik so'zlari to'plami sifatida taqdim etilgan. Ular odatda kasalliklarning belgilari, tashxisi, davolash yo'llari va “shifo san'ati” haqida qisqa fikrlar va ta'riflardan iborat bo'lgan [Brittanica, 2025]. Ammo vaqt o'tishi bilan bu janrning mazmuni va ahamiyati sezilarli darajada o'zgarib bordi. Oksford Lug'ati aforizمنى “har qanday fan sohasiga oid qoida yoki tamoyilning ixcham ifodasi” sifatida ta'riflaydi [Oxford Dictionary, n.d]. Keyinchalik esa aforizmlar nafaqat ilmiy, balki axloqiy va falsafiy tamoyillarni ham ifodalashi mumkinligi aniqlangan [Gross, 2003]. Uelsning “A Dictionary of Stylistics” (Stilistik atamalar lug'ati) asarida aforizm – bu inson tabiatiga oid umumiy yoki donishmandona haqiqatni ifodalovchi qisqa va mazmunli bayon yoki maksim sifatida ta'riflanadi. Odatda u hozirgi zamon fe'li yordamida ifodalanadi. Kitobda, shuningdek, aforizm odatda shaxsiy tusdan holi va ishonarli (avtoritativ) ohangga ega bo'lishi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, u qadimgi adabiyotga xos jihat sifatida XVII–XVIII asr nasriy adabiyotida yuzaga kelgan deb qayd etilgan [Wels, 2011]. Bundan tashqari, Gross o'zining *The Oxford Book of Aphorisms* kitobida doktor Samuel Jonson bergan aforizm ta'rifini keltiradi. Ushbu ta'rifda aforizm “maksim; qisqa jumlagi jamlangan qoida yoki fikr; mustaqil holatda turuvchi qarash” deb tushuntirilgan. Biroq, garchi maksim va aforizm o'zaro yaqin bo'lsa-da, ular bir-birini to'liq almashtira olmaydi. Maksim insonlarga qanday yashash kerakligini ko'rsatadi, aforizm esa ularni hayotning mohiyati haqida

evaluative stance, philosophical views, and socio-aesthetic perspectives.

The findings suggest that aphorisms not only enrich the expressive layer of literary texts but also have the power to stimulate readers' thinking and provoke discussion. These results open opportunities for further in-depth research of aphorisms in linguopoetic and cognitive aspects, as well as their effective application in translation, stylistics, and speech culture classes.

Key words: literary aphorism, stylistic analysis, imagery, emotionality, evaluation, conceptual metaphor, blending, intertextuality, convergence, dialogism.

chuqurroq o'ylashga undaydi. *Webster's New World Best Book of Aphorisms* lug'atida esa aforizm "donishmandlik yoki zukkolik bilan aytilgan, umumiy haqiqatni ixcham va aniq tarzda ifodalovchi jumla" sifatida ta'riflanadi. Yana bir aniq ta'rif V.I. Dalning qadimgi rus lug'atida uchraydi: «Афоризм – короткое и ясное изречение, правило, основанное на опыте и рассуждении; отрывочное, но полное по себе положение» ya'ni "Aforizm – qisqa va ravshan ifoda, tajriba hamda mulohazaga asoslangan qoida, mustaqil, ammo to'liq mazmunga ega fikr".

N.T. Fedorenko aforizmni "mazmunan teran, semantik jihatdan to'liq, muayyan muallifga mansub, obrazli va yodda qoladigan shaklda ifodalangan qisqa fikr" deb izohlaydi (bizning tarjima) [Fedorenko, 1990]. Klemens Poshnegel esa aforizmni "aniq ifodalangan fikrlar, hukmlar yoki donolikni o'zida mujassam etgan, mustaqil, lo'nda va ko'pincha hazilkash ohangdagi bayon" deb ta'riflaydi (bizning tarjima) [Pornschelegel, 2021].

Shu turli ta'riflardan kelib chiqadiki, aforizm – bu inson tajribasiga asoslangan, muayyan muallifga tegishli, aniq va lo'nda shakldagi hukm yoki fikr bo'lib, adabiy jihatdan ko'p qirrali tushunchadir. Adabiyotshunoslar fikricha, aforizm o'z ichiga maksimum (axloqiy mazmundagi aforizm), adage (muallifi noma'lum aforizm), apophthegm (muayyan muallifga oid aforizm), chrias (aniq shaxsga bog'langan holatdagi so'z) va gnom (she'riy shakldagi hikmatli ibora) kabi turli shakllarni oladi [Korolkova, 2007]. Demak, aforizm – bu mazkur barcha shakllarni qamrab oladigan kengroq tushuncha.

Shu nuqtayi nazardan, E.E. Ivanov o'zining *Linguistics of Aphorism* kitobida aforizmni "haqiqatning turli tomonlarini umumlashtirgan noyob lingvistik ifoda shakli" deb ta'riflaydi. U, shuningdek, aforizm qadim zamonlardan beri insonning ma'naviy va ijtimoiy hayotining turli jabhalarida keng qo'llanib kelganini ta'kidlaydi. Adabiy ensiklopedik lug'at ma'lumotiga ko'ra, aforizm dalillarga emas, balki hayotiy tajribaga tayanadi [Literary Encyclopedic Dictionary, 1987] u aql bilan isbotlab bo'lmaydigan, biroq his qilish va amaliy tajriba orqali tushuniladigan haqiqatlarga asoslanadi. N.T. Fedorenko va L.I. Sokolskaya aforizmlarni badiiy ifoda va mantiqiy fikrning uyg'unligi bilan ajralib turadi, deb hisoblaydilar. Olimlarning ta'kidlashicha, aforizmning yana bir muhim jihati shundaki, u ko'pincha didaktik fikr yoki paradoksal hukm sifatida namoyon bo'ladi va obrazli shaklda ifodalanadi [Sokolskaya, 1990]. Akramovning fikricha, aforizm – bu qisqa va obrazli tarzda ifodalangan chuqur ma'nodagi didaktik fikr bo'lib, ayrim hollarda murakkab uslubda, o'ziga xos bo'lishga intilgan paradoksal hukm ham bo'lishi mumkin [Akramov, 2022].

Shunday qilib, aforizmlar lingvopoetik tahlilning eng diqqatga sazovor obyektlaridan biri bo'lib, ular qisqa shaklda chuqur falsafiy va estetik mazmunni mujassamlashtiradi. Uslubiy belgilanganlik aforizmlarning asosiy xususiyati bo'lib, ular obrazlilik, emotsionallik va baholash kategoriyalarini birlashtirib, o'quvchida kuchli intellektual va hissiy rezonans uyg'otadi [Galperin, 1977; Leech & Short, 2007]. Bundan tashqari, aforizmlar qisqa ifoda birliklari bo'libgina qolmay, ular qisqa hajmda falsafiy haqiqatlar, axloqiy kuzatuvlar yoki kinoyali fikrlarni mujassamlashtiradi. Qisqaligi ularni soddalashtirayotgandek tuyulishi mumkin, ammo aforizmlar aslida

uslubiy jihatdan murakkab va kontseptual jihatdan chuqurdir. Ularning kuchi faqat mazmunda emas, balki uni qanday ifodalashda – obrazlilik, emotsional ta'sir va baholovchanlikda namoyon bo'ladi. Shu sababli, aforizmlar til vositalari orasida o'ziga xos stilistik fenomen sanaladi.

Ushbu maqolada aforizmlarning uslubiy jihatdan o'ziga xosligini uchta asosiy stilistik toifa asosida tahlil qilamiz: obrazlilik, emotsionallik va subyektiv baholash. Har bir kategoriya turli uslubiy va ritorik vositalar bilan bog'liq. Nazariy asos sifatida Galperin, Shaxovskiy, Ashurova va Galieva, Teliya va boshqa olimlarning qarashlariga, shuningdek, kognitiv yondashuv doirasida Lakoff va Jonsonning "Konseptual metafora" nazariyasi hamda Fokone va Ternerning "Konseptual blending" modeliga tayaniladi.

Obrazlilik tilda assotsiativ fikrlashni kuchaytirib, mavhum konseptlarni sezgi orqali idrok etishga yordam beradi. Emotsionallik esa Shaxovskiy ta'kidlaganidek, insonning dunyoga bo'lgan hissiy munosabatini ifodalaydi va matnning subyektivligini oshiradi [Shaxovskiy, 2008]. Baholash kategoriyasi [Vulf, 2006; Teliya, 1986] esa aforizmlarda axloqiy va ijtimoiy me'yorlarni belgilovchhi vosita sifatida xizmat qiladi.

Ushbu maqolada aforizmlar uslubiy jihatdan keng tahlil qilinib, metafora, paradoks, antiteza, alluziya, oksimoron, takror kabi vositalarning funksional roli aniqlanadi. Bundan tashqari, G. Lakoff va M. Jonsonning "Konseptual metafora" nazariyasi hamda Fokone va Ternerning "Konseptual blending" modeli asosida aforizmlarning kognitiv tabiatiga baho beriladi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda O. Uayld, V. Vulf, U. Bleyk, S. Jonson va G. B. Shou kabi yozuvchilarning 60 dan ortiq aforizmlari tanlab olindi. Tanlov jarayonida aforizmlarning tematik rang-barangligi (axloqiy, falsafiy, ijtimoiy mavzular) va badiiylik darajasi inobatga olindi. Har bir aforizm asl manbasi bilan birga qayd etildi va kerakli joylarda tarjima va izohlar kiritildi.

Dastlabki metod stilistik tahlil (stylistic analysis) metodlari bo'lib, unda deskriptiv va qiyosiy metodlar yordamida har bir aforizmning stilistik xususiyatlari aniqlab chiqildi. Metafora, antiteza, oksimoron, epitet, alluziya, takror va personifikatsiya kabi vositalar belgilandi, ularning matn mazmuniga qo'shgan hissasi va semantik yuklanishi tavsiflandi.

Keyingi metod kognitiv-uslubiy tahlil (cognitive stylistic analysis) metodi bo'lib, unda Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasi asosida obrazlarning manba va nishon sohalari o'rganildi, metaforalar orqali yangi ma'no yaratish jarayoni ko'rsatildi [Lakoff & Johnson, 1980].

Tadqiqotning uchinchi bosqichida, Fokone va Ternerning konseptual blending modeli qo'llanilib, aforizmlardagi ma'no uyg'unlashuvi va yangi g'oyalarning paydo bo'lishi tahlil qilindi [Fauconnier & Turner, 2002].

So'nggi asosiy foydalanilgan tahlil metodlaridan biri bu pragmatik tahlil (pragmatic analysis) metodi bo'lib, unda aforizmlarning o'quvchi ongiga ta'siri,

ularning didaktik va falsafiy ma'nolarini ochib berish uchun M. Baxtinning dialogizm nazariyasidan foydalanildi. Intertekstuallik yondashuvi orqali alluziyalar, iqtiboslar va madaniy kodlar aniqlanib, o'quvchida qanday fikriy jarayonlarni uyg'otishi baholandi [Baxtin, 1981].

Ma'lumotlarni ishonchli tahlil qilish maqsadida 10 ta aforizmda pilot kodlash o'tkazildi, kodlar lug'ati aniqlashtirildi, keyinchalik asosiy korpusga tatbiq qilindi. Kodlash jarayoni ikki tadqiqotchi tomonidan tekshirilib, kamchiliklar muhokama orqali bartaraf etildi. Triangulyatsiya (stilistik + kognitiv + pragmatik) orqali natijalar barqarorligi ta'minlandi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy etika va mualliflik huquqlariga qat'iy amal qilindi: barcha aforizmlar asl manbadan olindi, tarjimalar muallif uslubini saqlagan holda tayyorlandi. Shu metodologiya asosida olingan natijalar aforizmlarning obrazlilik, emotsionallik va baholash kategoriyalarini aniq ko'rsatib, ularning badiiy-estetik mohiyatini to'liq yoritishga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aforizmlarning aksariyati uslubiy belgilangan birliklar bo'lib, ular obrazlilik, emotsionallik va subyektiv baholashning uslubiy kategoriyalarini namoyon etadi. Galperin obrazlilikni "til vositalaridan shunday foydalanishki, u umumiy va xususiy, mavhum va konkret, shartli va faktual o'rtasida (ba'zida juda uzoq) assotsiatsiyalar uyg'otish orqali mavhum tushunchani sezgi orqali idrok etishga olib keladi" deb ta'riflaydi [Galperin, 1977; 264]. Shunday qilib, obrazlilik – bu mavhum tushunchalarni sezgi orqali tasavvur etishga yordam beruvchi til vositasidir. Obrazlilik metafora, metonimiya, alluziya, antonomaziya, metaforik perifriza, metaforik epitet kabi obrazli uslubiy vositalar orqali ifodalanadi. Bu vositalar tushunchalar o'rtasida assotsiativ ko'priklar quradi. Ular odatda mavhum tushunchani konkret obyekt orqali ifodalaydi. Obrazlilik uslubning kognitiv hodisasi sifatida analogiya tamoyiliga asoslangan ikki mental sohaning birikmasidan iborat.

Emotsionallik esa matn kategoriyasi sifatida inson his-tuyg'ularining turli jihatlarini ifodalaydi va turli emotsional ma'noli til vositalari orqali verbalizatsiya qilinadi. Emotsionallik muammosini birinchi bo'lib V.I. Shaxovskiy tadqiq etgan bo'lib, u tilning barcha sathlaridagi emotsional birliklarni chuqur tahlil qilgan. Shaxovskiy ta'kidlaganidek: "Umuman olganda, hissiyotlarni lingvistik tadqiq etishning mohiyati shunday ko'rinadi: dunyo (obyekt) va uni aks ettirish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs (subyekt) mavjud. Lekin inson dunyoni avtomatik tarzda emas, balki hissiy jihatdan aks ettiradi. Emotsiyalar shu aks ettirish jarayonini boshqaradi va dunyo hamda uning tildagi ifodasi o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi. Emotsiyalar ruhiy hodisa sifatida inson ongida aks etadi (ya'ni, qayta yaratiladi) va insonning dunyoga bo'lgan hissiy munosabatini bildiradi" [Shaxovskiy, 2008; 5-6]. Ashurova va Galieva fikricha, emotsionallik epitet, istehzo, takror, oksimoron, gradatsiya, ritorik savol, zevgma kabi uslubiy vositalar orqali; shuningdek, undovlar, hayrat ifodalovchi gaplar, qarg'ish va qasamlar kabi ekspressiv vositalar orqali ifodalanadi [Ashurova & Galieva, 2016]. Shunday qilib, emotsionallik inson his-tuyg'ularini ifodalovchi va

ularni faollashtiruvchi uslubiy toifa hisoblanadi.

Baholash – bu tildagi qiymat komponenti bo‘lib, u shaxs, obyekt yoki hodisaga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalaydi. Ya’ni, obrazlilik va emotsionallik kategoriyalari baholash kategoriyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uslubiy ta’sirchanlikni kuchaytiradi. E.M. Vulf ta’rifiga ko‘ra, baholash – bu til ma’nosining qadriyatli komponenti (yaxshi yoki yomon) bo‘lib, shaxs, obyekt yoki hodisaga nisbatan qo‘llanadi [Vulf, 2006]. V.N. Teliya esa baholashni quyidagicha ta’riflaydi: “Baholash – bu tinglovchi yoki so‘zlovchining qadriyatlar yo‘nalishi va reallik o‘rtasida o‘rnatilgan aloqa bo‘lib, u jamiyatda qabul qilingan me’yor va standartlarga muvofiq ravishda ijobiy yoki salbiy baholanadi” [Teliya, 1986]. Baholash quyidagi vositalar orqali ifodalanadi: paradoks, antiteza, ironiya, metafora, konnotativ leksika va sintaktik ajratish. Baholash ko‘pincha emotsionallik va obrazlilik bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Olimlar baholash kategoriyasini ijobiy va salbiy, subyektiv va obyektiv, bilvosita (implicit) va bevosita (explicit), mutlaq va qiyosiy, umumiy va xususiy kabi turlarga bo‘lishadi. Muallifning subyektiv bahosi deyarli barcha uslubiy va ekspressiv vositalar orqali ifodalanadi.

Shu o‘rinda aforizmlarda ishlatiladigan asosiy uslubiy vositalarni tahlil qilamiz. Aforizmlar mikromatn sifatida uslubiy belgilanganligi bilan xarakterlanadi, chunki ular obrazlilik, emotsionallik va baholashni ifodalash uchun ko‘plab uslubiy vositalardan foydalanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aforizmlarda metafora, metonimiya, epitet, personifikatsiya, takror, antiteza, paradoks kabi uslubiy vositalar keng qo‘llanadi.

1-jadval

Aforizmlardagi asosiy uslubiy vositalar va misollar

Uslubiy vosita	Asosiy stilistik toifa	Misol	Tarjima
Metafora	Obrazlilik + Baholash	<i>Memory is the diary that we all carry about with us.</i> – O. Wilde	<i>Xotira – bu har birimiz bilan yuradigan kundalik.</i>
Taqqoslash (simile)	Obrazlilik	<i>Laws are like cobwebs...</i> – J. Swift	<i>Qonunlar o‘rgimchak to‘riga o‘xshaydi...</i>
Antiteza	Baholash + Obrazlilik	<i>A fool sees not the same tree that a wise man sees.</i> – W. Blake	<i>Ahmoq donishmand ko‘rgan daraxtni ko‘rmaydi.</i>
Paradoks	Baholash + Emotsionallik	<i>Liberty means responsibility. That is why most men dread it.</i> – G.B. Shaw	<i>Erk – javobgarlik degani. Shuning uchun ham undan ko‘pchilik qo‘rqadi.</i>
Epitet	Emotsionallik + Obrazlilik	<i>Education is an admirable thing...</i> – O. Wilde	<i>Ta’lim – maqtovgva sazovor narsa...</i>
Alluziya	Obrazlilik + Baholash	<i>America is Paradise for women, that’s why Like Eve, they are so anxious to get out of it.</i> – O. Wilde	<i>Amerika ayollar uchun Jannat, shuning uchun Momo Havvoday, ular undan chiqishga intilishadi.</i>

Oksimoron	Emotsionallik + Obrazlilik	<i>Excessive sorrow laughs. Excessive joy weeps.</i> – W. Blake	<i>Haddan tashqari g'am kuladi. Haddan tashqari quvonch yig'laydi.</i>
Takror	Emotsionallik	<i>To do nothing at all is the most difficult thing in the world, the most difficult and the most intellectual.</i> – O. Wilde	<i>Dunyodagi eng qiyin narsa – umuman hech narsa qilmaslik, bu eng qiyini va eng aqllisi.</i>
Giperbola	Emotsionallik + Baholash	<i>A million deaths is a statistic.</i> – Churchill	<i>Bir million o'lim – bu faqat statistika.</i>
Kinoya (Ironiya)	Emotsionallik + Baholash	<i>Patriotism is the last refuge of a scoundrel.</i> – S. Johnson	<i>Vatanparvarlik – bu fribgarining so'nggi panohi.</i>
Insonlashtirish	Obrazlilik	<i>The future is purchased by the present.</i> – S. Johnson	<i>Kelajak hozirgi kun bilan sotib olinadi.</i>
Ritorik savol	Emotsionallik + Baholash	<i>What is a cynic? A man who knows the price of everything...</i> – O. Wilde	<i>Behayo nima? Hammasining narxini biladigan, ammo hech narsaning qadrini bilmaydigan odam.</i>
Stilistik uyg'unlashuv	Uchtalasi birgalikda	<i>The soul is born old but grows young, that's life's comedy, The body is born young but grows old, that's it's tragedy.</i> – O. Wilde	<i>Ruh keksalarcha tug'iladi, lekin yosharadi, bu hayot hazili. Tana yosh tug'iladi ammo keksayadi, bu uning fojeasi.</i>

Alluziya va intertekstuallik

Alluziya – aforizmlarda eng ko'p qo'llaniladigan uslubiy vositalardan biridir va intertekstual markerlarning asosiy ko'rinishi hisoblanadi. I.R. Galperin uni “gap yoki matn jarayonida tarixiy, adabiy, mifologik, diniy faktlarga yoki kundalik hayot hodisalariga bilvosita ishora” deb ta'riflaydi [Galperin, 1981; 334]. Alluziya o'quvchida diniy, tarixiy, mifologik yoki adabiy bilim strukturalarini faollashtiradi. M. Baxtinning “dialogizm” nazariyasiga ko'ra, har bir matn muallif va o'quvchi o'rtasidagi dialogdir, intertekstuallik esa matnlararo aloqaning ifodasi sifatida xizmat qiladi. I.V. Arnold va V. Chernyavskaya ta'kidlaganidek, intertekstual bog'lanishlar badiiy matnda juda ko'p uchraydi, shu asnoda bu jarayon badiiy aforizmlarda ham juda keng tarqalgan. Masalan, Ibtido, Jannat, Havvo kabi obrazlar Bibliyadan olingan diniy assotsiatsiyalarni uyg'otadi.

Paradoks

Paradoks – bu yuzaki qaraganda mantiqiy bo'lmagan, ammo chuqur tahlil qilinganda yangi, ma'noli tushunchalarni ochib beruvchi stilistik vosita. Paradoks – aforizmlarda eng ko'p ishlatiladigan uslubiy vositalardan biri bo'lib, u baholashni ifodalaydi, emotsiyalarni uyg'otadi va yorqin obrazlilik yaratadi. Paradoks – tashqi ko'rinishda mantiqan zid bo'lgan, ammo chuqur fikrni ifodalovchi stilistik figura Abrams va Harfam uni “o'z-o'ziga zid bo'lib tuyuluvchi, ammo haqiqatni ochib beruvchi ibora” deb atagan. [Abrams & Harpham, 2012] Kaddon esa uni o'quvchini o'ylashga undovchi vosita deb baholagan [Cuddon, 2013]. Masalan:

“Liberty means responsibility. That is why most men dread it”.
(George Bernard Shaw, *Maxims for Revolutionists*)

Tarjimasi: “Erk javobgarlikni anglatadi. Shuning uchun ko‘pchilik undan qo‘rqadi” (Shou)

“Love is the wisdom of the fool and the folly of the wise.”
(Samuel Johnson, quoted in *The Rambler*, 1750s)

Tarjimasi: “Muhabbat donishmand uchun telbalik, tentak uchun donolikdir” (Jonson)

Bu aforizmlar emotsiya, obraz va baholashni bir vaqtning o‘zida ifodalaydi. Ko‘plab zamonaviy lingvistlar uni mustaqil uslubiy vosita sifatida qabul qiladi [Leech & Short, 2007]. Ayniqsa, aforizmlarda paradoks insoniy kamchiliklar va axloqiy dilemmalarni istehzo va hazil orqali yoritishda qo‘llaniladi.

Konvergensiya

Aforizmlarning muhim xususiyatlaridan biri – bir nechta uslubiy vositalarning bir nuqtada qo‘llanishi, ya’ni konvergensiya. Konvergensiya – bu bir nechta stilistik vositalarning bitta matn parchasida birgalikda qo‘llanilishi. Bu atama M. Rifater tomonidan joriy etilgan bo‘lib, u bu fenomenni “stilistik vositalarning birikmasi orqali ta’sirchanlikni kuchaytirish” deb ta’riflagan [Riffaterre, 1980; 88–89]. I.V. Arnold esa uni stilistik funktsiya xizmatidagi vositalar uyg‘unligi sifatida izohlagan [I.V. Arnold, 2004; 99]. Konvergensiya uslubiy, pragmatik, kognitiv va sotsiokultural funksiyalarni bajaradi: yangi ma’nolar yaratish, konsept qurish, muallif modalligini ifodalash, konseptual jihatdan muhim ma’lumotni ajratib ko‘rsatish, o‘quvchiga intellektual va hissiy ta’sir o‘tkazish hamda madaniy qadriyatlarni mustahkamlash. Misol uchun:

“The soul is born old but grows young. That is the comedy of life. And the body is born young and grows old. That is life’s tragedy”.
(Oscar Wilde, *A Few Maxims for the Instruction of the Over-Educated*, 1894)

Tarjimasi: “Ruh qarib tug‘iladi, lekin yosharadi – bu hayotning komediyasi. Tan esa yosh tug‘iladi, lekin keksayadi – bu hayotning fojiasi” – Oskar Uayld

Bu aforizmda paradoks, antiteza, takror va baholovchanlik birlashtirilgan. Konvergensiya ko‘p funksiyali: **Kognitiv**: yangi tushunchalarni shakllantiradi; **Pragmatik**: emotsional va intellektual ta’sir ko‘rsatadi; va **Sotsiokultural**: qadriyatlarni ifodalaydi va saqlaydi.

Konvergensiya G. Kopnina, V. Kuxarenko, T. Kazakova, M. Obnorskaya va boshqa ko‘plab tilshunoslardan tomonidan ham ko‘p o‘rganilgan. Kopnina fikriga ko‘ra, konvergensiya – “bitta yoki turli til sathlariga oid uslubiy vositalarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadigan murakkab uslubiy vosita bo‘lib, ularning umumiy uslubiy funksiyani bajarishi natijasida yuzaga keladi. Uslubiy/stilistik konvergensiya uslubiy ta’sirni kuchaytiradi” [Kopnina, 2001; 155]. Rifater fikrini rivojlantirib, I. Arnold konvergensiya bir nechta uslubiy vositalarni matnning bir nuqtasida jamlaydi va bu vositalar bitta umumiy uslubiy funksiyani bajarishga yordam beradi, deb izohlaydi [Arnold, 2004; 99].

Shuni ta’kidlash kerakki, uslubiy vositalar konvergensiyasi (uyg‘unligi) asosan ularning bajaradigan uslubiy funksiyalari nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Uslubiy uyg‘unlikning yagona uslubiy vositaga nisbatan emotsionallik, ifodaviylik va baholashni ifodalashda ancha samarali ekanligi ayon. U turli xil funksiyalarni –

uslubiy, pragmatik, kognitiv va sotsiokultural funksiyalarni bajaradi va bu funksiyalar uslubiy effektini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Uslubiy funksiyalar uslubiy vositalar orqali yuzaga keladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: ifodaviylik funksiyasi, emotsionallik funksiyasi, emotsional-baholovchi funksiya va obrazlilik funksiyasi. Ular asosan emotsionallik, obrazlilik va baholashni ifodalashga qaratilgan. **Kognitiv funksiya** badiiy matnning dominant konseptini qurishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, u adabiy matnning konseptual mazmuniga qaratilgan bo'lib, konseptni shakllantirishga yordam beradi. Kognitiv funksiyaning bir nechta turlari mavjud: foregrounding (alohidalash), konseptni shakllantirish, qahramon obrazini yaratish, muallifning individual dunyo manzarasini aks ettirish. **Pragmatik funksiya** esa qahramonning ijtimoiy mavqeini, yoshini, intellektual salohiyatini ajratib ko'rsatishga qaratilgan. Shuni ham qayd etish lozimki, uslubshunoslik va kognitiv uslubshunoslikda uyg'unlik matnni ajratib ko'rsatish (foregrounding) vositalaridan biri sifatida qaraladi. I.V. Arnold ta'rificha, ilgari surish hodisasi (foregrounding) – bu matnni tashkil etishning bir usuli ... Uslubiy uyg'unlik foregrounding vositasi sifatida quyidagi Oskar Uayldning "Bulbul va Atirgul" hikoyasidan olingan adabiy aforizmda yaqqol ko'rinadi:

"- Here indeed is the true lover," said the Nightingale. "What I sing of, he suffers – what is joy to me, to him is pain. Surely Love is a wonderful thing. It is more precious than emeralds, and dearer than fine opals. Pearls and pomegranates cannot buy it, nor is it set forth in the marketplace. It may not be purchased of the merchants, nor can it be weighed out in the balance for gold" [Wilde, p.22].

Ushbu misolda konvergensiya metafora ("love is a wonderful thing"), qiyoslash ("love is ... more precious than emeralds, dearer than opals"), inversiyalar ("nor is it set forth, nor can it be weighed") va parallel qurilishlar orqali yaratilgan.

Konseptual metafora va konseptual aralashish (blending)

Metafora – faqatgina badiiy vosita emas, balki fikrlash vositasidir. Aforizmlarda qo'llanilgan metaforalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular konseptual metafora sifatida qaralishi mumkin. Konseptual metafora nazariyasi G. Lakoff va M. Jonson tomonidan "Metaphors We Live By" ("Biz yashaydigan metaforalar") asarida ilgari surilgan. Bu nazariyaning asosiy tamoyili shundaki, metafora shunchaki uslubiy vosita emas, balki tafakkur shakli va bilish vositasidir. Lakoff va Johnsonning ta'kidlashicha, inson tafakkuri mohiyatan metaforikdir: "Bizning konseptual tizimimiz asosan metaforik bo'lib, bizning kundalik fikrlash va harakat qilish tizimlarimiz ham aslida metaforik tabiatga ega" [Lakoff & Johnson, 1980; 3]. Lakoff va Jonson (1980) konseptual metafora nazariyasini ishlab chiqib, odamlar hayotni "sayohat", "urush", "sahna" kabi konkret tushunchalar orqali idrok etishini isbotladilar. Olimlar konseptual metaforalarning bir nechta turlarini ajratib ko'rsatganlar: strukturaviy metaforalar, yo'nalish (orientatsion) metaforalari, ontologik metaforalar, "conduit" metaforalari [Lakoff & Johnson, 1980] va "konteyner" metaforalari [Kubrykova, 2004]. Misol uchun, Struktural metaforalarga ko'ra, bir tushuncha boshqasining asosida metaforik tarzda tuziladi. Hayot = sayohat yoki Teatr; Orientatsion metaforalarda, tushuncha

to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqa bir konsept asosida tuzilmaydi, balki butun konseptual tizim boshqa tizim yordamida tashkil etiladi: Baxt = yuqoriga chiqish, g‘am = pastga tushish; **Ontologik metafora:** Muhabbat = obyekt; **Konduyit metafora:** Fikr = idish. Keling quyida jadvalda ushbu turlarga misol keltirish mumkin bo‘lgan, badiiy aforizmlarni ko‘rib chiqamiz:

2-jadval

Aforizmlarda uchraydigan metafora turlari va ularning tahlili

Metafora turi	Aforizm (English)	Tarjima (O‘zbek)	Tahlil / Izoh
Strukturaviy metafora (Bir konsept butunlay boshqa konsept asosida tuziladi)	“Hope is the thing with feathers that perches in the soul – And sings the tune without the words – And never stops – at all –” (Emily Dickinson, Poem 254)	“Umid bu qalbimizga qo‘nib olgan patli qushdir”	Umid qushga qiyoslanib, unga xususiyatlar (pat, qo‘nish, kuylash) beriladi. Bu metafora umid konseptini qush konsepti orqali to‘liq tushuntiradi.
	“All the world's a stage, And all the men and women merely players; They have their exits and their entrances, And one man in his time plays many parts, His acts being seven ages.” (William Shakespeare, As You Like It)	“Butun dunyo – bu sahna, erkaklar va ayollar esa oddiygina aktyorlardir. Ular kirib kelishadi va chiqib ketishadi, inson o‘z hayotida ko‘plab rollarni o‘ynaydi; uning aktyorligi yetti bosqichdan iborat”.	Bu eng mashhur strukturaviy metaforalardan biri: Hayot sahna sifatida tasavvur qilinadi, inson esa aktyor. Hayot bosqichlari rollar sifatida tasniflanadi.
Orientatsion metafora (Salomatlik/Hayot = YUQORI; Kasallik/O‘lim = PAST)	“How can you say my life is not a success? Have I not for more than sixty years got enough to eat and escaped being eaten?” (Logan Pearsall Smith, Last Words)	“Qanday qilib ayta olasizki, mening hayotim muvaffaqiyatsiz? Axir men o‘n olti yildan oshiq vaqt davomida yetarlicha ovqat topib yeb, yeyilmay yashab keldim-ku”	Bu yerda hayot metaforik ravishda “yuqorida turish” bilan tasavvur qilinadi. Omad – hayotning davom etishi, pastga tushmaslik.
	“Life is a great bundle of little things.” (Oliver Wendell Holmes Sr.)	“Hayot mayda-chuyda narsalarning katta bir tugunidir”	Hayot tugun yoki to‘plam sifatida tasvirlanadi, uni “birga ushlab turish” yuqoriga intilish va uyg‘unlikni ifodalaydi.

Orientatsion metafora (<i>Ong = YUQORI; Ongsizlik = PAST</i>)	“Drinking together in the evening we are human. When dawn comes, animals we rise up against each other”.	“Kechqurun ichsak – odamzodmiz, tongda esa – hayvon. Biz bir-birimizga qarshi tura boshlaymiz”.	Ongli holat “yuqoriga” ko‘tarilish bilan, instinktga berilish esa “pastga tushish” bilan metaforik bog‘langan.
	“They say, ‘Serve the fallen!’” (<i>Miguel de Cervantes</i>)	“Kishi yiqilgan bo‘lsa, unga ham pastga deyi-shadi!”	“Yiqilish” – muvaffaqiyatsizlikni pastlik sifatida ifodalaydi, ya‘ni ijtimoiy va ma‘naviy darajadan qulash.
Orientatsion metafora (<i>Kuch/Nazorat = YUQORI; Bo‘ysunish = PAST</i>)	“An idol is not the worse for being of coarse materials; a king should be a common-place man...” (<i>William Hazlitt</i>)	“Oddiy odam bo‘lishi kerak shoh, aks holda u tabiatan yuqorida turadi va bizning ixtiyorimizga bog‘liq bo‘lmaydi”.	Hokimiyat “balandlik” bilan bog‘lanadi: shoh odamlardan juda baland bo‘lsa, unga yetib bo‘lmaydi.
	“Perhaps it is the fate of men that no one should be completely governed by another...” (<i>Samuel Johnson</i>)	“Hech bir odam boshqa odam ustidan hukmronlik qilmasin...”	“Ustidan hukmronlik” – vertikal metafora, hukmronlikni “tepada turish” sifatida ifodalaydi.
	“Of all the preposterous assumptions of humanity over humanity...” (<i>Herman Melville</i>)	“Insoniyat haqida aytilgan eng shafqatsiz taxminlar...”	“Humanity over humanity” – ustunlikni balandlik bilan bog‘laydi, zulmni metaforik “yuqoridan bosish” sifatida tasvirlaydi.
	“Those who exercise power are not always the same as those over whom it is exercised” (<i>John Stuart Mill</i>)	“Hokimiyatni amalga oshirayotganlar bilan unga duchor bo‘layotganlar har doim bir odamlar emas”	“Over whom” – hokimiyatning tepadan pastga tushishini bildiradi, nazoratni fazoviy jihatdan ifodalaydi.
Ontologik metafora (<i>Mavhum tushunchalar = Ob‘ekt</i>)	“Love is a foreign light, our own egotism’s opposite.” (<i>Ralph Waldo Emerson</i>)	“Muhabbat yorug‘ chet ellik, o‘zgaligimizning aksi”.	Muhabbat “yorug‘lik” va “chet ellik” sifatida jonlantiriladi, u tashqi obyektga aylantiriladi.
	“Women are pictures; men are problems. If you want to know what a woman really means – look at her, don’t listen to her” (<i>Oscar Wilde</i>)	“Ayollar – bu suratlar, erkaklar esa muammolar...”	Ayollar tasvir , erkaklar muammo sifatida konseptualizatsiya qilindi. Bu mavhum tushunchalarni obyektga aylantiruvchi metafora.

Fokone va Turner esa Lakoff va Johnsonning nazariyalariga muvofiq ravishda konseptual blending (aralashma) nazariyasini ishlab chiqdi [Fauconnier & Turner, 2002]. Bu nazariya ikki mustaqil domenni birlashtirib, yangi ma‘no – aralash makon hosil qilishni tushuntiradi. Masalan:

“Butun dunyo sahnadir, insonlar esa aktyorlar” (Shekspir)

Bu yerda sahna va hayot domenlari birlashib, “hayot = drama” degan yangi tushunchani yaratadi.

Konseptual metafora nazariyasi biz mavhum tushunchalarni konkret sohalar orqali qanday tuzishimizni tushuntirishga asos yaratadi [Lakoff & Johnson, 1980]. Biroq, konseptual blending (yoki konseptual integratsiya) ushbu g‘oyani yanada rivojlantiradi va turli mental makonlardan elementlarni yangi, “aralash” makonga proyeksiya qilish orqali yangi ma’nolar yaratishni ko‘rsatadi [Fauconnier & Turner, 2002]. Bunday hollarda, konseptual blending jarayonida ikki bog‘liq bo‘lmagan kirish makoni umumiy makon orqali bog‘lanadi; umumiy makon ularning umumiy elementlarini ajratib ko‘rsatadi va bu elementlar yangi mental makonga – blendga – birlashtiriladi. Masalan, Shekspirning mashhur aforizmini olaylik:

Butun dunyo sahnadir, va barcha erkaklar hamda ayollar shunchaki aktyorlardir; ularning kirish va chiqishlari bor.

Bu aforizmدا Shekspir teatr va inson hayoti domenlari o‘rtasida konseptual blendni faollashtiradi. Manba domeni – “Teatr/Sahna” – bu yerda aktyorlar mavjud, ular rollarni ijro etadi, ssenariyga amal qiladi, kirish va chiqishlar qiladi. Maqsad domeni – “Dunyo/Inson hayoti” – bu yerda insonlar ota-ona, talaba, rahbar, bola kabi ijtimoiy rollarni bajaradilar. Ko‘rib turganimizdek, ikki domen turli vaziyatlarni ifodalaydi, ammo ular orasidagi umumiy jihat – bu insonlarning “rol ijrosi”dir.

Shu tarzda ikki domenning konseptual integratsiyasi yangi ma’no yaratadi va “HAYOT” tushunchasiga yangicha, hatto kinoyaviy va salbiy semantik xususiyatlar qo‘shadi: **Hayot–drama; hayot–sahnadagi spektakl; hayot–sun‘iy jarayon bo‘lib, unda odamlar o‘z rollarini o‘ynashadi.** Shu sababli ular o‘z haqiqiy mohiyatlarini, his-tuyg‘ularini va fikrlarini yashirishga moyil bo‘ladilar. Ya’ni insonlarning asl yuzi, kechinmalari, ichki “men”i va o‘zligi doimo yashirin holatda bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari bir necha asosiy yo‘nalishda umumlashtirildi:

□Obrazlilikning ustuvorligi. Metafora, epitet va personifikatsiya eng faol vositalar bo‘lib, mavhum konseptlarni konkretlashtirishga xizmat qildi. Masalan, E. Dikensonning “Umid – qalbimizga qo‘nib olgan patli qushdir” metaforasi mavhum “umid” konseptini jonli obrazga aylantiradi.

□Antiteza va paradoksning semantik kuchi. O. Uayld va G.B. Shou aforizmlarida qarama-qarshi tushunchalar juftligi o‘quvchini fikrlashga undaydi va kutilmagan semantik effekt hosil qiladi.

□Alluziya va intertekstuallikning madaniy yuklamasi. Tarixiy va adabiy ishoralar o‘quvchi bilim doirasini faollashtiradi va matnga ko‘p qatlamlilik beradi.

□Konvergensiya hodisasi. Ko‘p hollarda bir nechta stilistik vositalar bir nuqtada to‘planib, obrazlilik va emotsionallikni kuchaytirgan. Masalan, antiteza + paradoks + takror uyg‘unligi aforizmning estetik qiymatini oshirdi.

□Kognitiv mexanizmlar. Konseptual metafora va blending hayotiy tajribalarni yangi semantik maydonga olib kirib, hayot-sahna, inson-aktyor kabi konseptual juftliklarni shakllantirdi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aforizmlar tili va uslubi o‘ziga xos bo‘lib, ular mazmun va shakl jihatidan chuqur qatlamli muloqot maydonini

yaratadi. Aforizmlar qisqa, ammo mazmunan boy birliklar bo'lib, ular o'quvchida kuchli intellektual va hissiy rezonans uyg'otish xususiyatiga ega. Tadqiqot davomida aniqlanganki, aforizmlarning eng muhim uslubiy kategoriyalari obrazlilik, emotsionallik va baholash hisoblanadi. Ushbu kategoriyalar bir-biriga uzviy bog'langan holda matnning badiiy-estetik qiymatini oshiradi.

Obrazlilik (imagery) aforizmning asosiy semantik tayanchidir. Galperin ta'kidlaganidek, obrazlilik tilning kognitiv xususiyati bo'lib, abstrakt tushunchalarni sezgir idrok orqali anglash imkonini beradi [Galperin, 1977]. Aforizmlarda metafora, metonimiya, antonomaziya, alluziya kabi obrazli vositalar keng qo'llanadi. Masalan, O. Uayldning *"Man is least himself when he talks in his own person. Give him a mask, and he will tell you the truth"* aforizmidagi "niqob" metaforasi insonning ichki dunyosini ochib beruvchi kuchli obraz sifatida xizmat qiladi. Bu yerda niqob ikki xil ma'noda – yashirish va ochib berish funksiyasida qo'llanib, o'quvchida dialektik fikrlashni faollashtiradi.

Emotsionallik esa aforizmning hissiy ta'sirini belgilovchi muhim kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. V.I. Shaxovskiy nazariyasiga ko'ra, emotsional birliklar matnning subyektivligini oshiradi va o'quvchida hissiy rezonans uyg'otadi [Shaxovskiy, 2008]. Aforizmlar ko'pincha keskin baholash, kinoya yoki istehzo vositasida o'quvchining hissiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, J. Bernard Shouning *"The reasonable man adapts himself to the world; the unreasonable one persists in trying to adapt the world to himself. Therefore all progress depends on the unreasonable man"* aforizmidagi "reasonable" va "unreasonable" oppozitsiyasi o'quvchida bir vaqtning o'zida hayrat va fikrlashga majbur qiluvchi emotsional effekt hosil qiladi.

Baholash kategoriyasi (evaluation) esa aforizmning aksiologik (qiymatga oid) xususiyatini belgilaydi. Aforizm muallifi nafaqat faktlarni, balki ularning axloqiy yoki falsafiy bahosini ham beradi. Bu jihat ayniqsa ijtimoiy-madaniy kontekstda ahamiyatli, chunki aforizmlar ko'pincha jamiyatning axloqiy me'yorlarini ifoda etadi yoki ularga qarshi chiqadi. Bunday baholash xususiyatlari aforizmlarni zamon va makon chegaralaridan o'tuvchi universal nutq birliklariga aylantiradi.

Muhokamadan yana bir muhim xulosa shuki, aforizmlar faqatgina badiiy matnlarda emas, balki kundalik nutq, publitsistika va hatto ilmiy matnlarda ham uchraydi. Bu ularning kommunikativ universalligi va kognitiv samaradorligini ko'rsatadi. Konseptual metafora nazariyasi [Lakoff & Johnson, 1980] ham tadqiqotda muhim o'rin tutdi, chunki aforizmlar inson tafakkurining metaforik tabiatini yaqqol namoyon etadi. Demak, aforizmlar nafaqat badiiy nutqning bezagi, balki inson fikrlash tizimining ifodasi sifatida ham qaralishi mumkin.

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqot va tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, aforizmlar lingvopoetik fenomen sifatida murakkab va ko'p qatlamli hodisadir. Ular qisqa shaklga ega bo'lsa-da, mazmunan boy, estetik va kognitiv jihatdan chuqur ma'noga ega bo'ladi. Aforizmlar nutqning ixchamligi, obrazlilikning kuchi, emotsional

ta'sirchanligi va baholashning aniqligi bilan boshqa nutq birliklaridan ajralib turadi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, ular nafaqat axborot yetkazadi, balki o'quvchini fikrlashga, his qilishga, xulosa chiqarishga majbur qiladi. Shu bois, aforizmlar badiiy matnlarning semantik yadrosi sifatida xizmat qiladi va matnning umumiy ideyasini yanada kuchaytiradi.

Bu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, aforizmlarning obrazlilik darajasi ularni idrok etishda asosiy omil hisoblanadi. Obrazlilik orqali abstrakt tushunchalar sezgi orqali idrok qilinadigan darajaga olib kelinadi. Aforizmlar o'zining metaforik va ramziy xususiyatlari orqali o'quvchida ma'no hosil bo'lishining yangi darajasini yaratadi. Bundan tashqari, ularning emotsional ta'siri o'quvchi bilan bevosita aloqani ta'minlaydi, ya'ni matn va auditoriya o'rtasida hissiy ko'prik vazifasini bajaradi. Baholash kategoriyasi esa aforizmni axloqiy va falsafiy jihatdan yanada boyitadi, uni ijtimoiy diskursning muhim elementiga aylantiradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, aforizmlarni tahlil qilish tilshunoslik va adabiyotshunoslikda bir nechta yo'nalishlar uchun istiqbolli ekanini aytish mumkin. Aforizmlar orqali milliy va global madaniyatni, tarixiy davrning ruhini, muallifning individual dunyoqarashini tadqiq qilish imkoniyati tug'iladi. Ular tilshunoslikda metafora nazariyasi, pragmatik implikatura, intertekstual tahlil kabi yondashuvlar uchun boy material vazifasini bajaradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, aforizmlarni o'rganish ularning faqat badiiy qiymatini aniqlash bilan cheklanib qolmay, balki inson tafakkurining mantiqiy va emotsional mexanizmlarini anglashga ham yordam beradi. Shu sababli, ushbu mavzu bo'yicha yanada chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish, turli davr va tillardagi aforizmlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning kognitiv modellari va diskursiv funksiyalarini aniqlash kelgusida tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abrams, M. H., & Harfam, G. G. (2012). *Adabiy atamalar lug'ati* (10-nashr). Boston: Wadsworth Cengage Learning.
2. *Adabiy Entsiklopedik lug'at*
3. Akramov, I.I. (2022) "Ingliz va o'zbek tillarida aforizmlarning lingvistik soddaligi." *Markaziy Osiyo Adabiyot, Falsafa va Madaniyat Jurnali* 3(12).
4. Arnold, I. V. (2004). *Stilistika. Zamonaviy ingliz tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik*. Moskva: Flinta, Nauka.
5. Ashurova, D.U., & Galiyeva, M.R. (2016). *Badiiy matn stilistikasi [Stylistics of literary text]*. Tashkent: Turon-Iqbol.
6. Auriel, D. va Strupf, M. (Tahr.). (1989). *Websterning dunyodagi eng yaxshi aforizmlar kitobi*. Nyu-York: Webster's New World.
7. Baxtin, M. M. (1981). *Dialogik tasavvur: To'rt maqola* (M. Holquist, tahr.; C. Emerson & M. Holquist, tarj.). Ostin: Texas universiteti nashriyoti.
8. *Britannica entsiklopediyasi*
9. *Collins onlayn lug'ati*
10. Dal, V. I. (1989). *Rus xalq maqollari va matallari*. Moskva: (nashriyot ko'rsatilmagan).
11. Fedorenko, N. T., & Sokolskaya, L. I. *Aforistika*. Moskva: Nauka, 1990.
12. Fokone, G., & Ternier, M. (2002). *O'ylash usulimiz: Konseptual aralashtirish va ongning yashirin murakkabliklari*. Nyu-York: Basic Books.

13. Galperin, I. R. (1977). *Stilistika [Stylistics]*. Moskva: Vysshaya Shkola.
14. Galperin, I. R. (1981). *Stylistics* (2-nashr). Moskva: Vysshaya Shkola.
15. Gross, J. (Tahr.). (1983). *Oksford aforizmlar kitobi*. Oksford: Oksford universiteti nashriyoti.
16. Ivanov, E. E. (2016). *Aforizm lingvistikasi*. Mogilev: A. Kuleshov nomidagi Mogilev davlat universiteti.
17. Ivanov, E. E. (2018). *Aforizm – filologiya va lingvistika tadqiqot ob’ekti sifatida. Aforizm lingvistikasi: Xrestomatiya* (113–126-betlar). Minsk: Yuqori maktab nashriyoti.
18. Kaddon, J. A. (2013). *Adabiy atamalar va adabiy nazariya lug’ati* (5-nashr). Uayli-Blekvell.
19. Kopnina, G. A. (2001). *Zamonaviy rus adabiy tilida stilistik figuralarning konvergenstsiyasi (badiiy va gazeta-publitsistik matnlari asosida): Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi*. Krasnoyarsk.
20. Korolkova, A. V., Lomov, A. G. va Tixonov, A. N. (2007). *Rus yozuvchilarining aforizmlar lug’ati*. Moskva: Rus tili Media.
21. Kubryakova, E. S. (2004). Kognitiv fanlarning yo’nalishlari va kognitiv lingvistikaning dolzarb muammolari haqida. *Kognitiv lingvistika masalalari*, № 1, 6–17-betlar.
22. Kubryakova, E. S. (2004). *Til va bilim: Til haqidagi bilimlarni egallash yo’lida: So’z turkumlariga kognitiv nuqtayi nazardan qarash. Dunyo idrokida tilning o’rni*. Moskva: Slavyan madaniyati tillari.
23. Lakoff, G., & Johson, M. (1980). *Biz yashaydigan metaforalar*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.
24. Lich, G. N., & Short, M. (2007). *Badiiy uslub: Ingliz badiiy nasriga lingvistik kirish* (2-nashr). Harlou: Pearson Education Limited.
25. Merriam-Webster lug’ati
26. Oxford o’quvchilar lug’ati
27. Pornshlegel, C. (2021). III.8. *Aforizm*. A. Allerkamp va S. Schmidt (Tahr.), *Adabiyot va falsafa qo’llanmasi* (389–400-betlar). Berlin, Boston: De Gruyter.
28. Riffater, M. (1980). *She’riyat semiotikasi*. Bloomington: Indiana universiteti nashriyoti.
29. Shaxovskiy, V. I. (2008). *Emotsiyalar lingvistik nazariyasi*. Volgograd: Peremena.
30. Teliya, V. N. (1986). *Nominal birliklar semantikasining konnotativ jihati* (s. 144). Moskva: Nauka.
31. Uels, K. (2011). *Stilistikaga oid lug’at*. Nyu-York: Routledge Taylor & Francis Group.
32. Vulf, V. M. (2006). *Baholashning funksional semantikasi* (s. 280). Moskva: KomKniga.
- Chernyavskaya, V. Y. (1999). *“Intertekstuallik ilmiy kommunikatsiyada matn hosil qiluvchi kategoriya sifatida: Nemis tili materiallari asosida*. Sankt-Peterburg Davlat Iqtisodiyot va Moliya Universiteti.

REFERENCES

1. Abrams, M. H., & Harpham, G. G. (2012). *A glossary of literary terms* (10th ed.). Wadsworth Cengage Learning.
2. Akramov, I. I. (2022). Linguistic simplicity of aphorisms in English and Uzbek. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(12).
3. Arnold, I. V. (2004). *Stylistics: Modern English. A textbook for higher educational institutions*. Flinta; Nauka.
4. Ashurova, D. U., & Galiyeva, M. R. (2016). *Stylistics of the literary text*. Turon-Iqbol.
5. Auriel, D., & Strupf, M. (Eds.). (1989). *Webster’s New World best book of aphorisms*. Webster’s New World.
6. Bakhtin, M. M. (1981). *The dialogic imagination: Four essays* (M. Holquist, Ed.; C. Emerson & M. Holquist, Trans.). University of Texas Press.
7. Chernyavskaya, V. Y. (1999). *Intertextuality as a text-forming category in scientific communication: Based on German-language material*. Saint Petersburg State University of Economics and Finance.
8. *Collins Online Dictionary*. (n.d.). <https://www.collinsdictionary.com>

9. Cuddon, J. A. (2013). *A dictionary of literary terms and literary theory* (5th ed.). Wiley-Blackwell.
10. Dal, V. I. (1989). *Russian proverbs and sayings*. Moscow.
11. *Encyclopaedia Britannica*. (n.d.). <https://www.britannica.com>
12. Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). *The way we think: Conceptual blending and the mind's hidden complexities*. Basic Books.
13. Fedorenko, N. T., & Sokolskaya, L. I. (1990). *Aphoristics*. Nauka.
14. Galperin, I. R. (1977). *Stylistics*. Vysshaya Shkola.
15. Galperin, I. R. (1981). *Stylistics* (2nd ed.). Vysshaya Shkola.
16. Gross, J. (Ed.). (1983). *The Oxford book of aphorisms*. Oxford University Press.
17. Ivanov, E. E. (2016). *Linguistics of aphorism*. A. Kuleshov State University.
18. Ivanov, E. E. (2018). Aphorism as an object of philological and linguistic research. In *Linguistics of aphorism: Reader* (pp. 113–126). Higher School Publishing.
19. Kopnina, G. A. (2001). *Convergence of stylistic figures in modern Russian literary language (based on fiction and journalistic texts)* (Doctoral dissertation). Krasnoyarsk.
20. Korolkova, A. V., Lomov, A. G., & Tikhonov, A. N. (2007). *Dictionary of aphorisms of Russian writers*. Russian Language Media.
21. Kubryakova, E. S. (2004a). On the directions of cognitive sciences and pressing problems of cognitive linguistics. *Issues of Cognitive Linguistics*, (1), 6–17.
22. Kubryakova, E. S. (2004b). *Language and knowledge: On the way to acquiring knowledge about language. A cognitive perspective on parts of speech. The role of language in the perception of the world*. Languages of Slavic Culture.
23. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
24. Leech, G. N., & Short, M. (2007). *Style in fiction: A linguistic introduction to English fictional prose* (2nd ed.). Pearson Education.
25. *Literature encyclopedic dictionary*. (n.d.).
26. *Merriam-Webster Dictionary*. (n.d.). <https://www.merriam-webster.com>
27. *Oxford Learner's Dictionary*. (n.d.). <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com>
28. Pornschlegel, C. (2021). Aphorism. In A. Allerkamp & S. Schmidt (Eds.), *Handbook of literature and philosophy* (pp. 389–400). De Gruyter. <https://doi.org/10.1515/9783110484823-043>
29. Riffaterre, M. (1980). *Semiotics of poetry*. Indiana University Press.
30. Shakhovsky, V. I. (2008). *Linguistic theory of emotions*. Peremena.
31. Teliya, V. N. (1986). *Connotative aspect of the semantics of nominative units*. Nauka.
32. Vulf, V. M. (2006). *Functional semantics of evaluation*. KomKniga.
33. Wales, K. (2011). *A dictionary of stylistics* (3rd ed.). Routledge.